



QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL  
YANVAR-MAY

2023-yilning yanvar-may oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **3 417,4 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.

Yirik qurilish  
tashkilotlari



21,1

21,5

57,4

Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

**Yillar kesimida soni****Hududlar kesimida**

1743

Bino va inshootlar  
qurish

432

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

596

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 99,1 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydag'i yo'naliishi kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'naliishi 62,9 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 74,4 % ni tashkil etgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 15,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 127,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 21,5 foiz ulushni tashkil etib, 77,6 foizni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

|                      | Holatiga :     |                | o'tgan yiliga<br>nisbatan, % da |
|----------------------|----------------|----------------|---------------------------------|
|                      | 01.06.2022- y. | 01.06.2023- y. |                                 |
| Qashqadaryo viloyati | 3448           | 2771           | 80,4                            |
| <i>shaharlar:</i>    |                |                |                                 |
| Qarshi sh.           | 889            | 760            | 85,5                            |
| Shahrisabz sh.       | 149            | 130            | 87,2                            |
| <i>tumanlar:</i>     |                |                |                                 |
| G'uzor               | 143            | 97             | 67,8                            |
| Dehqonobod           | 147            | 87             | 59,2                            |
| Qamashi              | 171            | 126            | 73,7                            |
| Qarshi               | 400            | 303            | 75,8                            |
| Koson                | 315            | 290            | 92,1                            |
| Kitob                | 127            | 112            | 88,2                            |
| Mirishkor            | 96             | 88             | 91,7                            |
| Muborak              | 174            | 127            | 73,0                            |
| Nishon               | 120            | 91             | 75,8                            |
| Kasbi                | 156            | 123            | 78,8                            |
| Ko'kdala             | 0              | 31             | 0                               |
| Chiroqchi            | 220            | 130            | 59,1                            |
| Shahrisabz           | 120            | 102            | 85,0                            |
| Yakkabog'            | 221            | 174            | 78,7                            |



**2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
Qashqadaryo viloyatida  
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




**Qarshi sh. (27,4)**



**Qarshi (10,9)**



**Koson (10,5)**



# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may oylari uchun

|                             | Qurilish ishlari,<br>mlrd. so'm | Shu jumladan:                |                         |                 |
|-----------------------------|---------------------------------|------------------------------|-------------------------|-----------------|
|                             |                                 | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>3417,4</b>                   | <b>734,8</b>                 | <b>1961,2</b>           | <b>721,3</b>    |
| <b><i>shaharlar:</i></b>    |                                 |                              |                         |                 |
| Qarshi sh.                  | 1083,0                          | 290,6                        | 690,5                   | 101,9           |
| <b>Shahrisabz sh.</b>       | <b>176,2</b>                    | <b>55,8</b>                  | <b>90,0</b>             | <b>30,4</b>     |
| <b><i>tumanlar:</i></b>     |                                 |                              |                         |                 |
| <b>G'uzor</b>               | <b>327,5</b>                    | <b>104,7</b>                 | <b>144,8</b>            | <b>78,0</b>     |
| Dehqonobod                  | 66,9                            | 0,0                          | 23,6                    | 43,3            |
| <b>Qamashi</b>              | <b>82,4</b>                     | <b>0,0</b>                   | <b>54,1</b>             | <b>28,2</b>     |
| Qarshi                      | 215,0                           | 0,0                          | 176,8                   | 38,2            |
| <b>Koson</b>                | <b>230,7</b>                    | <b>7,5</b>                   | <b>140,1</b>            | <b>83,1</b>     |
| Kitob                       | 210,8                           | 0,0                          | 114,7                   | 96,1            |
| <b>Mirishkor</b>            | <b>31,8</b>                     | <b>0,0</b>                   | <b>26,0</b>             | <b>5,8</b>      |
| Muborak                     | 233,9                           | 156,9                        | 53,0                    | 24,0            |
| <b>Nishon</b>               | <b>126,6</b>                    | <b>6,0</b>                   | <b>103,4</b>            | <b>17,2</b>     |
| Kasbi                       | 84,5                            | 0,0                          | 37,7                    | 46,8            |
| <b>Ko'kdala</b>             | <b>4,7</b>                      | <b>0,0</b>                   | <b>3,1</b>              | <b>1,6</b>      |
| Chiroqchi                   | 326,1                           | 106,9                        | 151,6                   | 67,6            |
| <b>Shahrisabz</b>           | <b>65,7</b>                     | <b>0,1</b>                   | <b>59,3</b>             | <b>6,4</b>      |
| <b>Yakkabog'</b>            | <b>151,6</b>                    | <b>6,5</b>                   | <b>92,5</b>             | <b>52,6</b>     |

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmi qo'shgan holda




2023- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 734,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 90,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,4 % punktga kamayib, 21,5 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2023- yil yanvar-may oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 39,5 % i yoki 2022- yilga nisbatan 72,2 % ni tashkil qildi), Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 21,3 % i yoki 2022- yilga nisbatan 1,0 marta ko'paydi) va Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,6 % i yoki 2022- yiliga nisbatan 80,9 % ga ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,1 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 102,1 % ni tashkil etgan holda 1 492,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



57,4

2023- yil  
yanvar-may


54,7

2022- yil  
yanvar-may



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shahrisabz tumani (59,3 mlrd. so'm yoki umumiyligi hajmiga nisbatan 90,2 %), Nishon tumani (176,8 mlrd. so'm yoki 82,2 %), Mirshikor tumani (26,0 mlrd. so'm yoki 81,7 %) ga to'g'ri keldi.


Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 21,1 % ni tashkil etdi yoki 721,3 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan 98,8 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 158,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 3 259,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,6 % va 95,4 % ni tashkil etdi.

2022- yil  
yanvar-may



2023- yil  
yanvar-may



**Mulkchilik shakllari bo'yicha  
bajarilgan qurilish ishlari  
2023- yil yanvar-may oylarida**



|                             | Qurilish ishlari,<br>mlrd so'm | Davlat mulki |              | Nodavlat mulk |             |
|-----------------------------|--------------------------------|--------------|--------------|---------------|-------------|
|                             |                                | mlrd. so'm   | ulushi, % da | mlrd.so'm     | ulushi,% da |
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>3417,4</b>                  | <b>158,2</b> | <b>4,6</b>   | <b>3259,1</b> | <b>95,4</b> |
| <b><i>shaharlar:</i></b>    |                                |              |              |               |             |
| Qarshi sh.                  | 1083,0                         | 158,2        | 4,6          | 924,8         | 95,4        |
| Shahrisabz sh.              | 176,2                          |              |              | 176,2         | 100         |
| <b><i>tumanlar:</i></b>     |                                |              |              |               |             |
| G'uzor                      | 327,5                          |              |              | 327,5         | 100         |
| Dehqonobod                  | 66,9                           |              |              | 66,9          | 100         |
| Qamashi                     | 82,4                           |              |              | 82,4          | 100         |
| Qarshi                      | 215,0                          |              |              | 215,0         | 100         |
| Koson                       | 230,7                          |              |              | 230,7         | 100         |
| Kitob                       | 210,8                          |              |              | 210,8         | 100         |
| Mirishkor                   | 31,8                           |              |              | 31,8          | 100         |
| Muborak                     | 233,9                          |              |              | 233,9         | 100         |
| Nishon                      | 126,6                          |              |              | 126,6         | 100         |
| Kasbi                       | 84,5                           |              |              | 84,5          | 100         |
| Ko'kdala                    | 4,7                            |              |              | 4,7           | 100         |
| Chiroqchi                   | 326,1                          |              |              | 326,1         | 100         |
| Shahrisabz                  | 65,7                           |              |              | 65,7          | 100         |
| Yakkabog'                   | 151,6                          |              |              | 151,6         | 100         |



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-may oyida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **61,8 %** i yoki **2 111,1 mlrd. soʻm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**20,0 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **423,3 mlrd. soʻmlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 036,1 mlrd. soʻm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,1 %** ni tashkil etdi.

**49,1 %**

**30,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **651,8 mlrd. soʻm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **30,9 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may oyida

|                             | Qurilish ishlari,<br>mlrd. so'm | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Umumi hajmga<br>nisbatan, % da |
|-----------------------------|---------------------------------|----------------------------|--------------------------------|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>3417,4</b>                   | <b>100,2</b>               | <b>100,0</b>                   |
| <b>shaharlar:</b>           |                                 |                            |                                |
| Qarshi sh.                  | 1083,0                          | 100,2                      | 31,7                           |
| <b>Shahrisabz sh.</b>       | <b>176,2</b>                    | <b>114,1</b>               | <b>5,2</b>                     |
| <b>tumanlar:</b>            |                                 |                            |                                |
| G'uzor                      | 327,5                           | 85,6                       | 9,6                            |
| Dehqonobod                  | 66,9                            | 77,8                       | 2,0                            |
| Qamashi                     | 82,4                            | 102,8                      | 2,4                            |
| Qarshi                      | 215,0                           | 109,7                      | 6,3                            |
| Koson                       | 230,7                           | 87,7                       | 6,8                            |
| Kitob                       | 210,8                           | 100,5                      | 6,2                            |
| Mirishkor                   | 31,8                            | 52,6                       | 0,9                            |
| Muborak                     | 233,9                           | 236,2                      | 6,8                            |
| Nishon                      | 126,6                           | 84,1                       | 3,7                            |
| Kasbi                       | 84,5                            | 104,7                      | 2,5                            |
| Ko'kdala                    | 4,7                             | 60,1                       | 0,1                            |
| Chiroqchi                   | 326,1                           | 99,3                       | 9,5                            |
| <b>Shahrisabz</b>           | <b>65,7</b>                     | <b>70,3</b>                | <b>1,9</b>                     |
| Yakkabog'                   | 151,6                           | 109,7                      | 4,4                            |

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,4 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8 % punktga ko'payib, 64,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamayib, 31,2 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,7 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 83,3 % (3,3 % punktga ko'paydi).

ulushi % da



2022-yil  
yanvar-may



2023-yil  
yanvar-may

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 7,8 % punktga ko'paydi va 67,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 32,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 7,8 % punktga kamaydi.

